

**TALABALARNING KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA  
TAYYORLASHDA IJODKORLIK QOBILIYATINI  
RIVOJLANTIRISHNING USTIVORLIGI.**

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti o'qituvchisi **Qulmurodova S.**  
O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti talabasi **Abriyeva N.**

**Annatsiya:** Ta'lim jarayonida erishishi lozim bo'lgan yutuqlar ko'p jihatdan uning ijodiy kayfiyatini boshqara olishi bilan bog'liq. Ijodiy kayfiyat o'qituvchilik kasbida muhim ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlardan biridir.

**Аннотация:** Достижения, которых можно достичь в образовательном процессе, во многом связаны с его умением управлять своим творческим настроением. Творческий настрой – одна из важных особенностей педагогической профессии.

**Annotation:** Achievements to be achieved in the educational process are largely related to his ability to control his creative mood. Creative mood is one of the important features in the teaching profession.

Ta'lim to'g'risidagi qonun har bir o'qituvchidan tashabbuskorlik, ijodiylik, mustaqil fikrlay olish yechimlarning yangi andozasiz yondashuvlarni talab qiladi. Maktabdagi dars pedagogik ijodkorlikning bosh platsdarmi hisoblanadi. Darsda o'qituvchining asosiy ehtiyoji:uzatish, berish, o'rgatish amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. O'qituvchining professional odobi bu xususiyatni ham o'z ichiga oladi.Ma'lumki, inson oldida bir muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi.O'qituvchilik kasbi anashunday xususiyatga ega. Chunki o'qituvchilik ishida hamma vaqt ham qo'llash mumkin bo'lgan tayyor qoida, retsep yoki shablonlar yo'q pedagog o'qituvchi shaxsni shakllantiradi.kutilmagan vazifalarda mustaqil qaror qabul qiladi,pedagogik muammolarni yechadi,o'quv jarayonini mustaqil bajaradi. Bolalarning hammasida ijodkorlik mavjud. Pedagogik ijodkorlikning tup mohiyati ishning maqsadi va xarakteri bilan bog'liq.

Pedagogik ijodkorlik manbayi-pedagogik tajribadir.Pedagogik tajriba deganda o'qituvchining oz vazifasiga ijodiy,yangicha yondashishi,o'quvchilarning ta'lim-

tarbiyasida yangi samarali yo'l va vositalarni qidirib topa bilish tushiniladi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur, chunki hozirgi zamon fan va texnika tarqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishiva nihoyat o'qituvchilarni ham ijodiy fikrlashga tadqiqot ishlariga o'rgatish va jalb etishni talab qiladi. O'qituvchining pedagogik odob madaniyati, obro'si qanchalik baland bo'lsa ta'lim va tarbiya ishlari shunchalik samarali va ta'sirli bo'ladi.

Mamlakatyimizda olib borilayotgan ijtimoiy –siyosiy o'zgarishlar ta'lim sohasida o'qituvchi oldiga yuksak vazifalarni qo'ymoqda. Zamonaviy ta'lim o'qituvchidan quydagi vazifalarni e'tiborga olishni talab qiladi.

-o'z mutaxassisligi bo'yicha eng so'ngi bilimlardan xabardor bo'lib borishi, ta'limni pedagogik texnologiyalar hamda innavatsion texnologiyalardan foydalanib amaldagi o'quv tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etishi;

-ta'limda o'qituvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olib o'z mahoratini, bilimini va qobiliyatini namoyon etishi;

-o'quvchilarning qiziqishlari layoqati va talablarini hisobga olgan holda, ular tomonidan bilimlarni puxta o'zlashtirishiga sharoit yaratish;

-o'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan fanlarning o'zaro aloqadorligini ta'minlash;

-ta'limni tarbiyaviy jarayon bilan o'zaro aloqadorligi asosida shaxsni har tomonlama kamol topishini faollashtirish;

-o'quv tarbiyaviy faoliyatning barcha bosqichlarida ta'limning imotsionalligini ta'minlash;

-internet va axborot texnologiyalari asosida faning eng so'ngi yutuqlaridan xabardor bo'lib boorish;

-ta'limda o'quvchilarning bilm va ko'nikma malakalar, fikrlash va faoliyat turlarini boyitish maqsadida ular ruhiyatini doimiy o'rganib boorish;

-har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxish va taxlil qilish.

Ta'lim jarayonida erishishi lozim bo'lgan yutuqlar ko'p jihatdan uning ijodiy kayfiyatini boshqara olishi bilan bog'liq. Ijodiy kayfiyat o'qituvchilik kasbida muhim

ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlardan biridir. Ijodiy kayfiyat o'qituvchi aql idrokini namoyon etuvchi pedagogik mahoratning muhim qirrasini hisoblanadi. Ijodiy kayfiyat o'qituvchining ruhiy holatini bir maromda ushlab turuvchi kasbiy jihatdan ijodkorligini ta'minlovchi, kasbiy xususiyatlarining o'ziga xos jihatlarini ko'rsatuvchi o'qituvchilar jamoasiga tez kirish ketishini ta'minlovchi vositadir.

Ma'lumki, kasbiy tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijodiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o'zlashtirilishi talab etadi.

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi

Professional pedagogik faoliyati doimiy ijodkorlik jarayonidir. Lekin buning o'ziga xosligi bor o'qituvchi ijodiy originallik talab etadi qiymati mutloqo yangi ko'lamni yaratish mo'ljalanmagan shaxs rivojlantirish bo'yicha –bu muhim va jiddiy holat sanaladi. **Pedagogik ijodkorlik manbai-pedagogik tajribadir**, Pedagogik tajriba deganda o'qituvchining o'z vazifasiga, ijodiy yangicha yondashishi o'quvchilarning ta'lim tarbiyasida yangi samarali yo'l va vositalarni qidirib topa bilish tushiniladi. Ijodiy ishlagan o'qituvchi tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur, chunki hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi ya nihoyat o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga tadqiqot ishlarini o'rganish va jalb etishni talab etadi. O'qituvchining pedagogik odob madaniyati, obro'si qanchalik baland bo'lsa, ta'lim va tarbiya ishlari shunchalik samarali va ta'sirli bo'ladi.

Ta'lim tizimini boshqarish organlari har yili ta'lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e'tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o'quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o'quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham o'qituvchilarni kasbiy o'sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg'a intilishga bo'lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning o'quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi.

**Pedagogik ijodkorlik**– pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyatidir.

Pedagogning ijodkorlik sifatlariga ega bo'lmasligi tufayli talabalar ham qiziqarli va ajoyib g'oyalarga ega bo'lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo'l qo'yadi. Buning sababli ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodlar talabalarda erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi. Muallif tomonidan tavsiya qilingan vosita va strategiyalar talabalarda kreativlikni rivojlantirishda o'qituvchilar uchun qo'l keladi hamda talabalarda o'quv fanlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish, intilishni rivojlantiradi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. **Xoliqov A.;** Pedagogik mahorat: Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik / O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. -T.: 2011. 424 b
2. G'oziyev E. Psixologiya.-T.: O'qituvchi, 1994.-224 b.
3. O'roqov Sh. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Uslubiy qo'llanma. –Samarqand: SamDU nashri. 2011 yil.